

**XAYRIDDIN SULTONNING "YALDO KECHASI"
ROMANINING G'OYAVIY XUSUSIYATLARI**

Mansurova Bog'dagul Quchqorovna

Osiyo texnologiyalar universiteti o'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi 1-bosqich magistranti

bogdagulmansurovna19@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani g'oyaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda tarixiy haqiqat va badiiy tafakkur uyg'unligi, milliy ozodlik g'oyasi, jadidchilik harakati ruhiyati hamda shaxs va jamiyat munosabati masalalari yoritiladi. Roman voqealari orqali xalqning ma'naviy uyg'onishi va istiqbolga intilish g'oyasi ilgari surilgani ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, milliy ozodlik, jadidchilik, tarixiy haqiqat, badiiy tafakkur, g'oya, ma'naviy uyg'onish.

Аннотация: В статье анализируются идейные особенности романа Хайриiddина Султана "Ялдо кечаси". Освещаются вопросы исторической правды и художественного мышления идеи национального освобождения, движения джадидизма и проблема личности и общества.

Ключевые слова: исторический роман, национальное освобождение, джадидизм, историческая правда, художественное мышление.

Abstract: The article analyzes the ideological features of Khayriddin Sulton's novel "Yaldo kechasi". It explores the harmony of historical truth and artistic, imagination the idea of national liberation, the spirit of Jadidism and the relationship between the individual and society. The study reveals the novel's role in reflecting spiritual awakening and the struggle for independence.

Keywords: historical novel, national liberation, Jadidism, historical truth, artistic thought.

KIRISH.

O'zbek adabiyotida tarixiy roman janri millat taqdiri bilan bog'liq murakkab davrlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani ana shunday asarlardan biri bo'lib, unda XX asr boshlaridagi ijtimoiy, siyosiy jarayonlar jadidchilik harakati, milliy ozodlik g'oyasi badiiy talqin etiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi roman g'oyaviy qatlamini tahlil qilish, undagi asosiy yo'nalishlarni aniqlashdan iborat.

NATIJALAR VA TAHLIL.

Yaldo kechasi asarining mas'ul muharriri Ibrohim G'ofurov ta'biri bilan aytganda: "Bu kitobni u adabiy mistifikatsiyadan foydalangan holda "O'tkan kunlar" ning

ikkinchi kitobi tarzida yozdi; buyuk Qodiriy nomidan Qodiriy bo'lib yozdi: qattol zamon Qodiriyning qo'lini kishanlab, unga yozish uchun imkon bermaganligi bois fozil izdosh va uvays shogird sifatida yozdi. Hech kimning xayoliga kelmagan fantastik bir orzuni ro'yobga chiqardi. Bu asar yangi zamon o'zbek adabiyotida tamomila kashfiyot desa arzigulikdir.

Biroz fikr qilgan holda ta'kidlash kerakki "Yaldo kechasi" tajallisida quyidagilar namoyon bo'ladi:

- o'zbek adabiyotida ilk bor adabiy mistifikatsiyadan foydalanildi.
- Jadid obrazi ilk bor Yodgorbek Otabek o'g'li, Nusratxon to'ra, Dadaxon muallim kabi obrazlar misolida yorqin namoyon bo'ladi.
- jadid maktablarining mashaqqatli faoliyati ochib beriladi.
- jadid matbuoti "Najot" gazetasi misolida talqin etiladi.
- hazrati Usmon mus'hafi tarixi va uning yurtimizga qaytarilishi badiiy ifodasini topdi.

- Turkistonda kechgan ocharchilik adabiyotga olib kirildi va obrazlashtirildi.
- Baynalmilal oilalarning yuzaga kelishi va maqsad muddaolari fosh qilindi.

Bundan tashqari, "Yaldo kechasi" da muallifning vaqtli-bevaqt voqeaga aralashishlari Nusratxon to'ra obrazi, 27- 100- 260-sahifalaridagi tasvirlar va ayrim o'rinlar ham borki, bu boshqa maqola uchun alohida mavzudur.[1.1].

Yaldo kechasi eng uzun tun bo'lib, 21-dekabrdan 22- dekaabrga o'tar kechasi hisoblanadi. Asarda esa bu uzun kecha Turkiston xalqlari boshiga tushgan qora kunlar, istibdod davrini ifoda etadi va ramzlashadi.

O'g'ri va qaroqchilar, asosan, tunda ovga chiqadi, shafqat bilmaydi. Hatto kasalliklar ham negadir tunda ko'proq xuruj qiladi. Odamzod esa tongni kuta boshlaydi.[1.2]

Asarda Yodgorbek va uning ikki farzandi arjumandi - Ozodbek va Odilbek, Zumradbibi, usta Alim, jadid Nusratxon to'ra, Dadaxon muallim, Maqsud ponsad, Haydar, Burxon, Oynisa qo'rboshi kabi qahramonlar taqdiri orqali Turkiston xalqlari ijtimoiy hayoti, boshiga tushgan ko'rguliklar, judoliklar ochib beriladi.

Tarixiy va to'qima obrazlar orqali muazzam bir adabiy maydon yaratilib, yaxlit asar vujudga kelgan.[1.3]

Asarning g'oyaviy asoslari. Roman markazida millatning ozodlikka intilishi turadi. Asarda zulm, mustamlakachilik siyosati va xalqning og'ir ijtimoiy ahvoli tasvirlanadi. Muallif qahramonlar taqdiri orqali ozodlik g'oyasini ilgari suradi. "Yaldo kechasi" ramziy ma'noda zulmatli davrni anglatga, tong- millatning kelajakdagi yorug' kunlariga ishora qiladi.

Romanda ma'rifatparvarlik g'oyalari ham yetakchi o'rin tutadi. Jadid ziyolilari timsolida ilm-ma'rifat orqali jamiyatni yangilash g'oyasi ilgari suriladi. Muallif jaholat

va qoloqlikni tanqid qiladi, yangi tafakkur tarafdorlarini ijobiy obraz sifatida gavdalandiradi.

Roman qahramonlarining maslagi yuksak, Ular oila, ro'zg'or ishlari, kunlik tirikchilik g'amini o'ylamayd ham. Boshga ish tushganda bu tashvishlar hech nima bo'lib qoladi. Ular faqat el-yurt ozodligi uchun qayg'uradi. Yodgorbek "Axir, bu kunlarda Ovrupo xalqi osmonga uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupolilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari; alarning shaharlari iliktrik bilan yoritilur va isitilur ekan turkistoniy ahli donishlar orasinda to'y kuni qo'yni kelin kelishidan avval yoki keyin so'yg'an joizmi.....degan ixtilof hanuz davom etayotgani hech kimga sir emasku," deb kuyunadi va Ostoumovga yozgan xatida "xalqqa muhabbat zulmga adovat, fisq- u fujurg'a nafrat, riyo va zarparastliqqa xusumat" ini oshkor etadi.[1.4]

XULOSA.

Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani o'zbek tarixiy romanining muhim namunalaridan biri bo'lib, unda milliy ozodlik, ma'naviy uyg'onish va jadidchilik g'oyalari chuqur badiiy talqin etilgan. Bu asar kitobxonlarni Vatanni sevishga, uning tarixiy o'tmishiga befarq bo'lmaslikka da'vat etadi. Asarni 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan kitobxonlarga tavsiya qilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Normatov U. Mustaqillik davri o'zbek nasri. -Toshkent: O'zbekiston, 2021. 340- b.
2. Mirzayev A. Zamonaviy o'zbek nasrida badiiy tafakkur. -Toshkent: Universitet, 2023. 215-b.
3. Abdullayeva G. Xayriddin Sulton ijodi o'rganilishi. Tezis. European science international confe.
4. Shavkat Shahri. Yaldo kechasini kuting va o'qing. Jadid 48-son.2025 28-noyabr.
5. Shuhrat Rizayev. Yaldo kechasi milliy tarixiy tafakkurni uyg'otgan badiiy hodisa. A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
6. Xoliyor Safarov. Yurt qayg'usi haqidagi asar -Yaldo kechasi tajallisi. Filologiya fanlari falsafa doktori. Maqola.
7. Xayriddin Sulton. Yaldo kechasi. Toshkent: Xaybar-25. 2025.